Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida
“Do‘stlik” festivali doirasida “Biz Yangi O‘zbekiston farzandimiz!”
mavzusida o‘tkazilgan intellektual o‘yin va tanlovlar yuzasidan
HISOBOT


“Do‘stlik” festivali doirasida Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida talaba-yoshlar o‘rtasida “Biz Yangi O‘zbekiston farzandimiz!” mavzusida turli intellektual o‘yin va tanlovlarni tashkil etildi.

Talabalar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida “Yosh kitobxonlar” tanlovi o‘tkazildi. Tanlovning ichki nizomi ishlab chiqilib tasdiqlandi, universitetning rasmiy sahifalari orqali keng targ‘ib qilindi. Tanlov davomida ishtirokchilar o‘zlari mutolaa qilgan badiiy asarlar bo‘yicha taqdimotlar bilan chiqish qilib, asar mazmuni, qahramonlari va undan olgan saboqlari haqida so‘zlab berdilar. Tanlov yakunlariga ko‘ra g‘oliblar munosib rag‘batlantirildi. Mazkur tanlov yoshlarning badiiy adabiyotga qiziqishini oshirish, ularning tafakkur doirasi va nutq madaniyatini boyitishga xizmat qildi.









Talabalarning bilim darajasi, mantiqiy fikrlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida universitetda “Zakovat” intellektual o‘yini o‘tkazildi. O‘yinni o‘tkazish tartibi ishlab chiqilib, universitetning rasmiy sahifalarida keng targ‘ib qilindi. Intellektual bellashuvda talabalar jamoalari turli sohalarga oid savollarga javob berib, o‘z salohiyatini namoyon etdilar, g‘olib jamoalar taqdirlandi.

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: VG77216976

Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarni o‘zaro birlashtirish maqsadida #dostfest2026 heshtegi ostida onlayn chellenj va tanlov uyushtirildi. Chellenjni o‘tkazish tartibi tasdiqlanib, universitetning rasmiy sahifalarida e’lon berildi. Talaba-yoshlar tomonidan tayyorlangan eng yaxshi foto va video materiallar universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida #dostfest2026 heshtegi ostida muntazam joylashtirib borildi. Turli nominatsiyalar bo‘yicha eng faol ishtirokchilar aniqlanib, taqdirlandi.

Talabalarda erkin fikrlash, o‘z nuqtai nazarini asosli himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida “Munozara” debati tashkil etildi. Debatning ichki nizomi tasdiqlanib, ishtirokchilar o‘rtasida dolzarb mavzularda bahs-munozaralar o‘tkazildi. G‘oliblar rag‘batlantirildi, tadbir jarayonlari ijtimoiy tarmoqlarda yoritildi.





Shuningdek, talabalarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni Vatanga muhabbat va do‘stlik mavzusidagi asarlarni ijro etishga rag‘batlantirish maqsadida “Eng yaxshi qo‘shiq” tanlovi o‘tkazildi. Tanlovda ishtirokchilar yakkaxon va jamoaviy ijrolar bilan sahnaga chiqib, tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo‘ldilar. Tanlov g‘oliblari munosib taqdirlandi.









Amalga oshirilgan ishlar universitetning rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritib borildi. O‘tkazilgan tadbirlar talabalar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi hamda ularda Yangi O‘zbekiston farzandi ekanidan g‘urur, millatlararo do‘stlik va hamjihatlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qildi.

Birinchi prorektor **A.Ashurov**